Iste'molchi uchun banklar mijozga shunday yuqori sifatli va qulay xizmatlarni taqdim eta boshlaydilarki, kundalik hayotda bankning o'zi bilan o'zaro aloqa deyarli sezilmaydi va ortiqcha vaqt talab qilmaydi.

Natijada banklar ofislarsiz, xodimlarsiz, pulsiz va mijozlarsiz ishlaydigan raqamli shaklga o'tadilar.

Ofislarsiz: Rossiya Markaziy banki 2025 yilga kelib mamlakatda bank ofislari hozirgidan 40-50 foizga kamroq bo'lishiga ishonch bildirdi. Bank of America, City, HCBS kabi gigantlar ham o'z ofislarini qisqartirishmoqda. AQSHda yopilgan ofislarning umumiy soni, ayrim manbalarga ko'ra, so'nggi 8 yil ichida 6 000 tani tashkil etgan.

"Bank filiallarini qanchalik qulay qilsa ham mijozlar ularga tashrif buyurishni vaqt va pulni behuda sarflash deb hisoblashadi. Agar ular istalgan qurilmadan (noutbuk, planshet, smartfon, aqlli soat, aqlli mashina va boshqalar), istalgan vaqtda, istalgan geografik hududdan turib istalgan bank xizmatidan foydalana olsalar, aksariyat mijozlarga bank ofislari umuman kerak emas. Bankning o'zi uchun ham filiallarni ushlab turish jiddiy investitsiya va doimiy xarajatni talab qiladi.

2025-yilga kelib Rossiyada bank filiallari soni hozirgidan ikki baravar kam bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishish uchun banklar mujuzlar uchun dunyoning istalgan nuqtasidan 24/7 tarzida bank xizmatlaridan foydalanish, masofadan turib indentifikatsiya qilish va shaxsiy ma'lumotlarning ishonchli himoyasi kabi texnologik muammolarni hal qilishlari kerak bo'ladi.

Ba'zi mutaxassislar yaqin kelajakda bank filiallariga ehtiyoj butunlay yo'qolishiga shubha bilan qaraydi,



ularning fikricha, filiallar har doim kerak bo'ladi, chunki har doim murakkab bank mahsulotlarini sotish bo'yicha shaxsiy professional maslahat kerak bo'ladi. Chunki masofadan turib amalga oshirib bo'lmaydigan bank operatsiyalari ham mavjud: hisob raqamiga katta miqdorda pul yoki depozit qo'yish yoki bank yacheyka (seyf)laridan foydalanish. Kelajakda ofislar mijozlarning yangi ehtiyojlariga funksional tarzda moslashtiriladi.

Lekin yuqoridagi fikr filiallardan butunlay voz kechgan, ammo Rossiyadagi mijozlar sonini 4 million kishiga ko'paytirgan Tinkoff bankning muvaffaqiyatini inkor etadi. Markswebb Rank & Report agentligi tomonidan uning internet-banking tizimi 2014-2015-yillarda mamlakatdagi eng samarali tizim deb tan olindi. O'sha yilning o'zidayoq bankning xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli depozit reytingi, shuningdek, milliy valyutadagi yuqori ta'minlanmagan qarzlarning reytingini B2 darajasidan B1 darajasiga ko'tarildi. Natijada Oleg Tinkov Forbes milliarderlari ro'yxatiga qaytdi.

Xodimlarsiz: Xodimlar sonining qisqarishi bilan filiallar soni ham qisqarib boradi. Banklar va fintex kompaniyalar barcha turdagi zamonaviy raqamli texnologiyalarni sinash uchun yetakchi platformaga aylandi. Natijada aqlli yordamchi, chat-botlar, CRM va katta ma'lumotlar bazasi (sun'iy intellekt texnologiyalari) biznes-tahlilning rolini oshirishdi.

Xodimlarning ko'p mas'uliyati mijozlarga o'tkazilishi mumkin. Shunday qilib, ko'p hollarda mijozlar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish orqali o'zlari uchun eng mos mahsulotlar to'plamini tanlashlari mumkin. Sun'iy intellekt elementlariga ega bo'lgan chat-botlar mijozlar bilan muammolarni va ularni hal qilish yo'llarini muhokama qiladi.

Rossiya bank sektori shu yo'nalishda harakat qilmoqda. Deltabank kredit so'rovi bo'yicha bir zumda qaror chiqaradigan va yuqori ehtimollik darajasiga (taxminan 80 foiz) ega bo'lgan, ajratilishi mumkin bo'lgan ipoteka kreditining eng yuqori miqdorini aniqlaydigan ilovani ishga tushirdi. Bu CRM asosida ishlaydigan, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga asoslangan ilova bo'lib, mijozdan faqat skanerlangan hujjatlarni yuklash talab qilinadi. To'qqiz oy davomida 8 mingga yaqin murojaat ko'rib chiqilib, 1 mlrd. rubl miqdorida kredit ajratildi.

Agar biz bugungi Sberbankni besh yil oldingisi bilan qiyoslasak, ilgari bankning rahbar xodimlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning taxminan 50 foizi hozirda mashinalar tomonidan qabul qilinadi. Shuningdek, besh yil ichida biz barcha qarorlarning taxminan 80 foizini sun'iy intellektdan foydalangan holda qabul qilinishiga harakat qilinmoqda.

Nafaqat Rossiya banklarida, balki dunyoning yirik banklarda ham botlardan foydalanish jiddiy umid tug'dirmoqda. KPMG inqilobiy yangilik – EVA (Enlightened Virtual Assistant - "Yetuk Virtual Yordamchi") deb nomlangan elektron yordamchini taqdim etdi. U ilg'or tahlil vositalari, ovoqli autentifikatsiya, sun'iy intellekt, API va bulutli texnologiyalardan foydalanadi. Ushbu ilova mijozning doimiy ravishda tez tayyor bo'ladigan ovqatlar (fast-fud) uchun xarajatlarini tahlil qilib, uni sog'lig'iga zararini inobatga olib, unga vrach qabuliga yozilish yoki sog'lom turmush tarzi haqidagi kitoblarni o'qishni tavsiya qilishi, ular uchun to'lovni ham amalga oshirishi mumkin.

Goldman Sachs yirik bank mijozlari nomidan aksiyalar bilan savdo qiladigan treyderlarni robotlar bilan almashtirdilar. 2000 yilda bu vakolatga ega bo'lgan 600 kishidan endilikda faqatgina ikkitasi qoldi.

"Klassik bank-biznes jarayonlari va funksiyalari avtomatlashtirilayotgan hamda robotlashtirilayotgan ayni paytda bank biznesi murakkablashib bormoqda. Bir tomondan, bankning barqarorligi va risk boshqaruvi KYC (Know your customer – "O'z mijozingizni bil") jarayonlariga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Boshqa tomondan, yakuniy bank xizmatlarining murakkabligi oshib bormoqda, tobora murakkab xizmatlar paydo bo'lmoqda, natijada robotlashtirishga ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Umuman olganda, biz xodimlarini raqamli olamga tayyorlab borishimiz kerak", – deya xulosa qiladi "Otkritiye" bankining informatsion texnologiyalar bo'yicha direktori Kirill Menshov.

Pulsiz: Hozirda bank tartib-qoidalarini soddalashtirish haqida ko'proq gap ketmoqda. Buning uchun kriptovalyutalar va blokcheyn xizmatlari foydasiga oddiy pullardan voz kechish kerak bo'ladi. Ushbu g'oyani amalga oshirish uchun yillar kerak bo'lishi mumkin, ammo ular mijozlarni ham, tranzaksiyalarni ham tekshirishni osonlashtiradi, shuningdek, likvid aktivlar bilan bog'liq har qanday munosabatlarni soddalashtiradi.

Pul insoniyatning eng buyuk ixtirolaridan biridir. Ammo uning shakllari doimo o'zgarib kelgan, masalan, chig'anoqlar, oltin tangalar, cheklar va banknotalar shular jumlasidandir. Endi yuqori likvidli qiymatlarni ifodalash uchun blokcheyn texnologiyasi bizga yordam berishi mumkin. Albatta, bu bitkoin kriptovalyutasi bo'lishi shart emas, blokcheyn asosida ko'plab qiziqarli ilovalar, "aqlli shartnomalar" yaratish mumkin. Ammo baribir blokcheyn texnologiyasidagi eng qiziq jihati bu – tranzaksiyani amalga oshirish salohiyati an'anaviy yondashuvlarga qaraganda ancha arzonroq ekanligidir.

Bank sohasida bunday o'zgarishlarning ijobiy tajribasi allaqachon mavjud. Barclays bank isroillik startup bilan birinchi savdo bitimini blokcheyn yordamida amalga oshirdi. Odatda, bunday hollarda murakkab ish jarayoni bu – maxfiy hujjatlarni kurer yordamida yetkazish hisoblanadi. Amalda, bu 30 kungacha davom etadi, blokcheyn yordamida esa hammasi bor-yo'g'i 4 soat ichida amalga oshiriladi.

Ko'pgina biznes modellari notariuslar, xalqaro SWIFT tizimi, depozitariylar va boshqa vositachilarni o'z ichiga oladi. Blokcheyn mazkur vositachilik xizmatlaridan to'liq yoki qisman voz kechishga imkon beradi, shu bilan birga, biznes operatsiyalar sezilarli darajada tezlashtiradi va narxini arzonlashtiradi.



“Blokcheyn xizmat sifatida” - keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan yana bir tendensiyadir. Yirik dasturiy ta'minot yaratuvchilari allaqachon bulutli texnologiyalarga asoslangan yechimlarni taqdim etishdi. Ular Rossiyada ham qo'llanila boshlandi: Rosevrobank blokcheynda foydalanuvchini masofadan identifikatsiya qilish uchun prototip tizimini ishlab chiqdi. Bunda markazlashtirilmagan tizim mijozlarga boshqa banklarning xizmatlaridan (ofisga bormasdan) foydalanish imkonini beradi.

Mijozlarsiz: Yana bir o'zgarish tranzaksiyalar bilan ham bog'liq: banklar va fintex kompaniyalari odamlar bilan emas, balki internet qurilmalar bilan muloqot qiladilar, ularning soni hozirda sayyoramiz aholisidan oshib ketgan va 2025 yilga borib 50 milliardga yetishi taxmin qilinmoqda. Bunda mijoz o'z vakolatlarini mustaqil ravishda belgilaydi, ammo uning bank bilan aloqasi shu yerda tugaydi. Biroq, odamlar baribir jarayonning yakuniy benefitsiar (manfaat ko'ruvchi)lari bo'lib qoladilar.

MasterCard bunday xizmatlarni yaratishda yalavbardor bo'ldi. U deyarli har qanday gadgetni to'lov vositasiga aylantirishga yordam beradigan dastur ishlab chiqadi. CES 2017 ko'rgazmasida Samsung bilan qo'shma ishlanma taqdim etildi: Groceries ilovasi to'g'ridan-to'g'ri aqlli muzlatgich displeyida mahsulotlarni tanlash va to'lash imkonini beradi, u oziq-ovqatning yaroqlilik muddatini ham kuzatib boradi, muddat o'tib ketsa, qo'shimcha buyurtmalar berishga qodirdir.

Bank iste'molchilari bir qism pulidan mahrum qilishga urinadigan muassasa emas, balki maqsadlariga erishishda unga yordam beradigan do'st va yordamchiga aylanishi kerak. Bunday banklar odamlarda faqat ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otishga xizmat qiladi.

Agar ipoteka kreditini raqamlashtirish bo'yicha Rossiya va Qozog'istonda amalga oshirilgan loyihalar haqida gapiradigan bo'lsak, bu mijozlarga dizayn loyihasiga ega, ta'mirlangan va mebellari mavjud yangi kvartira orzusini amalga oshirish imkonini beruvchi to'liq raqamli yechim bo'ladi. Shu bilan birga, virtual texnologiyalar yordamida mijoz kvartiraga tashrif buyurishi, dizayn, mebelni tanlashi va hatto derazadan ko'rinadigan manzaraga baho berishi mumkin. U tayyor kvartiraning kalitlarini o'z shahridan chiqmasdan, bankka faqat bir marta - ipoteka bitimini imzolash uchun tashrif buyurgan holda oladi.

Gartner hisob-kitoblariga ko'ra, yirik tashkilotlar (jumladan, moliya sektori) IT- budjetlarining 70 foizini muhim ma'lumotlarni saqlashga sarflaydilar, lekin bu ma'lumotlarning 60-80% hali ham tuzimlashtirilmagan va amalda foydalanilmaydi.

Hozir ko'plab tashkilotlarda innovatsion platformalar ilgari tizimga o'rnatilgan bo'lib, banklar ularni ish holatida saqlashga harakat qilmoqdalar, xolos, ularni rivojlantirishga deyarli e'tibor bermayaptilar.

Banklarning raqamli transformatsiyasi natijasida yirik o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Aytaylik, mijozlar soni, xoh ular odamlar bo'lsin, xoh qurilmalar, shiddat bilan ortib borishi, yangi xizmatni bozorga chiqarish vaqti ham qisqarib borishi mumkin. Bundan tashqari, bitta mijozga xizmat ko'rsatish narxi ikki baravar kamayishi mumkin. Bular erishish juda qiyin maqsadlar, lekin bulutli texnologiyalar, mikroservis arxitekturasini, mashinani yordamida chuqur o'rganish, blokcheyn va kollektiv kiberxavfsizlik kabi yangi avtomatlashtirish vositalari vazifani har jihatdan ijobiy hal qilish imkonini beradi.

Bank ilovasi juda tor funksional xizmatdan asta-sekin mijozning didi va manfaatlarini hisobga oladigan to'liqonli universal yordamchiga aylanmoqda. Shu bilan birga, to'plangan ma'lumotlar anonimlashtiriladi va undan noto'g'ri maqsadlarda foydalanish xavfi bartaraf qilinadi. Shunday qilib, “Tinkoff” bank AI-First konsepsiyasini amalga oshirish uchun AI bank savdo belgisini ro'yxatdan o'tkazdi. Bank uzoq vaqtdan beri katta ma'lumotlar bilan ishlashga e'tibor qaratib keladi va sun'iy intellekt yordamida ularni tahlil qilish va bugungi kunda elektron tijoratdagidek tavsiya qiluvchi tizimlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. VTB esa sun'iy intellekt barcha bank jarayonlarida tez va to'liq miqyosda joriy etadigan platformani ishga tushirdi. Uning asosida ma'lumotlarni tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi modullar yaratildi.

Sun'iy intellekt banklarga yanada aniqroq va xolis baholash modellarini yaratishga yordam beradi. Skoring - bu shaxsiy kredit tarixi asosida qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash tizimi. Algoritm nafaqat mijozni tekshiradi, balki shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa qarz oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, uning kelajakdagi xatti-harakatlarini ham bashorat qila oladi. Ilgari, 2000 yillarning o'rtalarida iste'mol krediti boshlanishida banklar hammaga kreditlar bergan bo'lsa, 2008 va 2014 yillardagi iqtisodiy bo'hronlardan so'ng ular to'plangan tarixga asoslangan skoring modellarini yaratishga kirishdilar. Natijada, rad etilgan talabgorlar salmog'i doimiy ravishda o'sib, muammoli mijozlar soni shunga mos ravishda qisqara boshladi. Bugungi kunda bu jarayon raqamlashtirilmoqda. Masalan, Sberbank allaqachon sun'iy intellekt yordamida bunday qarorlarning 100 foizini qabul qilmoqda. Inson aralashuvi faqat 5 foiz holatlarda talab qilinadi.

Sun'iy intellektga asoslangan skoring modelining qarz oluvchiga taqdim etadigan qulayligi shundaki, birinchidan, arizaga bir necha kun emas, balki bir necha daqiqa ichida tezkor javob olinadi, ikkinchidan, baholashda inson omili ishtirok etmaydi. VTB kredit ajratish jarayonida raqamli texnologiyani joriy etganligi sababli 18 foiz ko'proq chakana kreditlar ajratishni boshladi.

Aloqa markazlaridagi chat va ovoqli botlar aksariyat yirik banklarda mavjud. Aqlli algoritmalar mijozlar muammolarini tezda hal qila oladi. Misol uchun, “Xoum Kredit” bank statistik ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt



joriy qilingandan keyin, mijozlarning 91 foizi bankning aloqa markazlariga murojaat qilmasdan qo'ygan. "Tinkoff" bank ovozi yordamchining vazifalarini rivojlantirishda yanada ilgarilab ketdi: undan pul o'tkazish yoki aksiyalarni sotib olish uchun ham foydalanish mumkin bo'ldi.

Robot nafaqat o'zi samarali muloqot qila oladi, balki xodimlarning ishini ham nazorat qiladi: u xodimlar mijozlar bilan qay darajada to'g'ri muloqot o'rnatganini tahlil qiladi. Natijada, bank aloqaning zaif nuqtalari ustida ishlashi mumkin, shunda iste'molchilarga yaxshiroq va tezroq xizmatlar ko'rsatilishi ta'minlanadi. Masalan, VTB bank mijozlar bilan muloqotda aloqa-markaz operatorlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt asosida yaratilgan analitik modullardan foydalanmoqda.

Shaxsni biometrik ma'lumotlar asosida aniqlash sun'iy intellekt tizimining bir qismi hisoblanadi. HSBC kabi g'arb banklari ta'qiqdagi kartani faollashtirish uchun aloqa markaziga qo'ng'iroq qilgan foydalanuvchini aniqlash uchun ulardan foydalanadi. Bu juda qulay: operatorning javobini kutish va pasport ma'lumotlarini yoki kod so'zini (ko'pincha unutiladi) aytishga hojat yo'q, muammo bir necha daqiqada hal qilinadi. Garchi banklar allaqachon biometrik ma'lumotlarni yig'ishni boshlagan bo'lsa-da, Rossiyada bu xizmat hali joriy qilinmagan ^[13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya bank sektorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Sektorda uzoq vaqtdan beri zamonaviy texnologiyalar qo'llanilib kelinmoqda, katta hajmdagi ma'lumotlar qayta ishlanadi, innovatsiyalar joriy etiladi va foydalanuvchilarga individual yondashiladi. Masalan, Singapurning UOB banki mijozga yo'naltirilgan xizmatlar yaratish uchun sun'iy intellekt algoritmlaridan faol foydalanadi. Sun'iy intellekt mijozning xarajatlarini tahlil qiladi va olingan ma'lumotlar asosida mijozlar uchun noyob takliflarni shakllantiradi. Bank ushbu sohani rivojlantirishga qariyb 500 mln. AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritdi va 2022-yilning birinchi yarmida UOB mijozlari 27,3 ga yaqin individual tavsiyalar oldilar.

"Tinkoff" bank doimiy ravishda juda ko'p qayta ishlanadigan ma'lumotlar bilan ishlaydi, bu ma'lumotlar tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarurdir. Ushbu maqsadlar uchun bank nformatica Big Data Management platformasidan foydalanadi. Ma'lumotlar miqdori, manbalari soni va analitik modeldan qat'iy nazar, tizim kerakli auditoriyani batafsil o'rganadigan universal vosita hisoblanadi. Mazkur tizimning bank ekotizimiga kiritilishi tufayli marketing kompaniyalari bilan ma'lumot almashish 10 barobar oshib, qarz oluvchining kredit tarixini har tomonlama o'rganish hisobiga muammoli kreditlarning vujudga kelish xavfi kamaydi. Bundan tashqari, ma'lumotlarni olish vaqti ham 5 baravar qisqardi.

IBM ekspertlarining ta'kidlashicha, bank sektori konservativ soha bo'lib, banking yo'nalishiga boshqa raqiblarning kirishiga to'sqinlik qiladigan bir qator huquqiy to'siqlar mavjud. Biroq raqamli texnologiyalar, shu jumladan, bulutli, mobil va analitik tizimlarning rivojlanishi yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Bunga ko'plab mamlakatlarning regulatorylari ham ko'maklashadi, ular qonunchilikdagi o'zgarishlar kiritish tashabbusidan foydalanib bank sektoriga innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi. Designingga Sustainable Digital Bank IBM hisobotiga ko'ra, raqamli bank infratuzilmasi real vaqt rejimida mijoz va bankning o'zaro aloqa qilishlariga imkon yaratib, bankning ichki moslashuvchanlik qobiliyati esa raqamli texnologiyalar yuqori tezligida tarqalishiga zamin yaratdi.

IBM raqamli bankni to'rt yo'nalishda ko'rib chiqadi:

- 1) Model A - raqamli bank brendi (Roketbank) - banklar zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos innovatsion brendlar va mahsulotlar ishlab chiqaradi;
- 2) Model B - raqamli kanallarga ega bank (Talkbank) - bunday banklar mavjud banklarning bek-ofis litsenziyasidan foydalangan holda o'z mahsulotlarini qulayroq interfeysi orqali sotadilar;
- 3) Model S - bankning raqamli filiali (Touchbank) - raqamli sohadagi katta tajriba va yangi biznes-jarayonlar kabi yondashuvlar birlashtiradi;
- 4) Model D - raqamli bank (Tinkoff Bank) - bunday banklar raqamli texnologiyalar asosida o'z mahsulotlarini ishlab chiqish ^[14].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2025-yilga kelib yosh avlod ishchi kuchining 60 foizini tashkil qiladi. Aynan shu avlod internet va smartfon bilan tug'ilgan bo'lib, Google, Apple, Facebook i Amazon davridan oldingi paytlarni ko'rmagan. Ushbu yoshlarning 33 foizi banklarga umuman muhtoj emasligiga ishonishadi. Ularning 75 foizi esa Google va Amazon kompaniyalarining moliyaviy xizmatlaridan foydalanishni ma'qul ko'radilar. Juniper 2023-yilning oxiriga borib yer aholisining 3 milliard smartfon va kompyuterlar orqali bank xizmatlaridan foydalanishi basharat qildi. Shuningdek, tahlilchilar tadqiqot o'tkazib, raqamli transformatsiyada eng katta muvaffaqiyatga BancoSantander, BankofAmerica, Barclays, BBVA, BNP Paribas, Citi, HSBC, JP MorganChase, RBS, SociétéGénérale, UniCredit i WellsFargo kabi yirik kompaniyalar erishganligini aniqladilar ^[15].

Bank of America xizmat ko'rsatuvchi xodimlarsiz ishlaydigan birinchi bank filiallarini sinovdan o'tkazdi. Ular faqat bankomatlar va bank xodimlari bilan ba'zi masalalarni shaxsan muhokama qilishga mo'ljallangan maxsus videokonferensiya xonalari bilan jihozlangan. Bank mijozlarning bunday ko'rinishdagi mini filiallar faoliyatiga



bo'lgan munosabatidan kelib chiqib, kelajakda robo-banking tizimiga o'tishi mumkin. 6,5 mobil ilova foydalanuvchisiga ega Barclays (har biriga bir oyda o'rtacha 26 marta kiriladi) Facebook raqamli xizmat kanalini ochishni rejalashtirmoqda. BNP Paribas raqamli transformatsiyaga 3 milliard yevro sarflashga qaror qildi. Bundan tashqari, mijozlarga xizmat ko'rsatishning raqamli kanallarga o'tkazilishi bankka Fransiyadagi chakana filiallar sonini 10 foizga kamaytirish imkoniyatini berdi.

Ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar, sun'iy intellekt va internetning rivojlanishi raqamli texnologiyalar poygasiga qo'shilishga zamin yaratib, raqamli dunyoda raqobatbardoshlikni ushlab turishga yordam beradi. Video-integratsiyasi baxtsiz hodisa natijasida yetkazilgan zarar haqida sug'urta kompaniyasiga xabar berish tartibini soddalashtirdi, bundan tashqari, foydalanuvchining bankomat bilan deyarli xarajatsiz o'zaro aloqaga kirishishiga olib keldi. Moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarning taxminan 80 foizi video-bankingga mijozlar tajribasini oshiradigan va xarajatlarini qisqartiradigan vosita sifatida qarashadi.

Chat-botlar va virtual yordamchilardan foydalanish mijozlar bilan deyarli har qanday mavzuda - hisob raqamlari haqidagi ma'lumotlardan boshlab xarajatlar tarixigacha - suhbatni davom ettirishga imkon beradi, shuningdek, kerakli tavsiya va takliflar beradi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, Yevropa moliya institutlari chat-bot kabi yechimlar yordamida ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xarajatlarni 90 foizgacha tejashga erishishlari mumkin. Robot maslahatchilaridan foydalanish: sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida banklar deyarli barcha masalalar bo'yicha maslahat bera oladigan aqlli mexanizmlarni yaratishi mumkin, ular investitsiya imkoniyatlaridan tortib, jamg'armalarni boshqarishga individual yondashuv asosida o'z maslahatlarini beradilar. Bunga mijozlarning barcha bank ma'lumotlaridan foydalanishga imkon beradigan ochiq integratsiyalashgan arxitekturadan foydalanish orqali erishiladi.

Bank sohasida sun'iy intellektning asosiy maqsadi mijozlarning xohish-istaklari, ularning bank xizmatlaridan qoniqish darajasi haqida tasavvurga ega bo'lish, yangi moliyaviy mahsulotlar va texnologiyalardan kelajakda mijozlar nimalarni umid qilayotganligini aniqlashga yordam berishdir.

Bank sohasi sun'iy intellektidan quyidagi yo'nalishlarda foydalanadi:

- 1. Mijozlarni qoniqtirish.** Sun'iy intellekt daromadni oshirish, qisqa muddatda qarorlar qabul qilish va mijozlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Sun'iy intellektning mavjudligi nafaqat mijozlar qoniqishini kafolatlaydi, balki banklarga bek-ofisning samarali ishlashini ta'minlashga yordam beradi;
- 2. Virtual suhbatdosh.** Sun'iy intellekt mijozlarga tranzaksiya tafsilotlari, taklif qilinayotgan qo'shimcha xizmatlarning tarkibini bilishga yordam beradi. Chat-botlar yordamida banklar har bir mijozning talablarini tushunishlari, to'g'ri tijorat takliflarini shakllantirishlari va sodiqlik dasturlarini amalga oshirishlari mumkin;
- 3. Firibgarlikni aniqlash.** Bank sektoridagi firibgarlik sohaning eng jiddiy muammolaridan biridir. Moliyaviy firibgarlik kiberhujumlari sodir bo'lganda, zarar ko'rgan shaxs va bank tizimga kirish tafsilotlarini aniqlamasdan turib, ular bilan kurashish juda qiyindir. Sun'iy intellekt tomonidan tahdidga qanchalik tez javob berilsa, u shunchalik tez bartaraf qilinadi, bu esa bankning sodiq mijozlarini saqlab qolishga yordam beradi. Sun'iy intellekt bank firibgarligi xavfini aniqlash va kamaytirish uchun noyob qobiliyatga ega. Keng ko'lamli tranzaksiya ma'lumotlarini skanerlash va har qanday noan'anaviy faoliyat yoki tarqibsiz xatti-harakatlarni kuzatish bank firibgarligini aniqlash usullaridan biri hisoblanadi ^[16];
- 4. Raqamlashtirish.** Ma'lumotlarni raqamli formatga o'tkazish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bank sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari quyidagilar:

- 1) mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- 2) mijoz uchun ham, bank uchun ham vaqt sarfini tejash;
- 3) inson omili xavfini kamaytirish;
- 4) mijozlarda sodiqlikni shakllantirish;
- 5) pul oqimlarining harakatini ta'minlash;
- 6) naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish.

Sun'iy intellekt texnologiyalari bank amaliyotiga joriy etilganda, ular ma'lumotlar bazasini samarali o'rganishga yordam beradi va banklarga mijozlar uchun tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish moliyaviy maslahatlar berishni osonlashtiradi. Ushbu ilovalar yordamida siz tezda moliyaviy strategiyalar, kredit foizlari va kelajakdagi moliya bozor taraqqiyoti haqida ma'lumot olishingiz mumkin.



Moliyaviy xizmatlar sohasida sun'iy intellektning imkoniyatlariga oid ilmiy tortishuvlar texnologiya atrofida paydo bo'lgan katta qiziqish fonida tarqalmoqda. 2023-yilning oxiriga borib, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan ilovalar yordamida banklar 447 milliard AQSH dollari miqdorida xarajatlarni tejashi taxmin qilinmoqda, buning 416 milliard AQSH dollari front-ofis va xizmat ko'rsatishning o'rta yo'g'niga to'g'ri keladi ^[17].

Sun'iy intellektidan keng foydalanishning samarali natijalari quyidagilar hisoblanadi:

- Data Science bozori o'sishda davom yetmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, 2026-yilda bozor hajmi 322,9 mlrd. AQSH dollargacha o'sib boradi va yillik o'sish sur'ati 27,7 foizni tashkil qiladi;
- bugungi kunda sun'iy intellekt faol joriy etilayotgan sanoat tarmoqlari bank sektori, telekom, logistika, tibbiyot, oziq-ovqat sanoati va chakana savdo hisoblanadi;
- yirik ma'lumotlar bilan ishlash salohiyatli mijozlar auditoriyasini yanada yaxshiroq o'rganishga, mavjud mijozlarning sodiqligini oshirishga imkon beradi;
- ma'lumotlar tahlili banklar mahsulotlarini shaxsga yanada moslashtiradi, bu esa faollikni oshirish va sotuvni ko'paytirish imkonini beradi;
- sun'iy intellektga asoslangan yechimlar nafaqat tashkilot samaradorligini oshiradi, balki xarajatlarni keskin qisqartiradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Флах П. Машинное обучение. М.: ДМК Пресс, 2015. 400 с.;
2. 13. Nav Gill. Overview of Artificial Intelligence and Role of Natural Language Processing in Big Data // Data Science Central: The Online Resource For Big Data Practitioners. May 24, 2017. URL: <https://www.datasciencecentral.com/profiles/blogs/overview-of-artificial-intelligence-and-role-of-natural-language>;
3. Kul Bhushan. Artificial Intelligence in Indian banking: Challenges and opportunities // Livemint. July 9, 2018. URL: <https://www.livemint.com/AI/v0Nd6Xkv0nINDG4wQ2JOvK/Artificial-Intelligencein-Indian-banking-Challenges-and-op.html>
4. Пашковская И.В. Конкурентные возможности банков в цифровой экономике // Вестник Евразийской науки. – 2021 № 6. – URL: <https://esj.today/PDF/50ECVN621.pdf>;
5. Заборовская А.Е., Заборовский В.Е., Адамова Я.В. Банковская система России на современном этапе: показатели, технологии, инструменты // Вестник Евразийской науки, 2018 № 4, <https://esj.today/PDF/06ECVN418.pdf> (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ.;
6. Мозговой А.И. Повышение эффективности управления за счет цифровизации экономики // Вестник Евразийской науки. – 2018 № 5. – URL: <https://esj.today/PDF/91ECVN518.pdf> DOI: 10.15862/91ECVN518;
7. Чуланова О.Л., Хайбуллова К.Н. Исследование применения технологий искусственного интеллекта в управлении персоналом современных организаций // Вестник Евразийской науки. – 2020 № 1. – URL: <https://esj.today/PDF/50ECVN120.pdf>;
8. Беляев, М.К. Искусственный интеллект в операционной деятельности банка будущего / М.К. Беляев, А.Д. Ерохова // Проблемы национальной стратегии. – 2019. – № 2(53). – С. 147–162;
9. Бочкова Ю.П. Современные тенденции на рынке банковских услуг России // Вестник БГУ, 2017. № 15. С. 47–49;
10. Бутенко Е.Д. Искусственный интеллект в банках сегодня: опыт и перспективы // Финансы и кредит. – 2018. – Т. 24. – № 3;
11. Буханов А.С. Применение Искусственного интеллекта в сфере банковского обслуживания в России / А.С. Буханов, Н.Д. Никоненко // Проблемы современной экономики: сборник материалов XXXVIII Международной научнопрактической конференции, Новосибирск, 25 мая – 09 2017 года. – Новосибирск: Общество с ограниченной ответственностью "Центр развития научного сотрудничества", 2017. – С. 85–89;
12. Годлевская Д.В., Маркосян О.Р., Пидяшова А.А. Расширение применения систем искусственного интеллекта в банковской сфере // Тенденции развития науки и образования. – 2020. – № 63–3. – с. 60–63; <https://www.banki.ru/news/columnists/?id=10942804>;
13. Нуриденулы М. IBM предложил классификацию цифровых банков [Электронный ресурс] // Forbes. 2019. 18 янв. URL: <https://www.forbes.ru/biznes/371421-ibm-predlozhil-novuyuklassifikaciyu-cifrovyyh-bankov> (дата обращения: 19.03.2019);
14. Технологии финансовых услуг в 2020 году и в дальнейшем: революционные перемены [Электронный ресурс] // PricewaterhouseCoopers. Режим доступа: https://www.pwc.ru/ru/banking/publications/_FinTech – Дата доступа: 31.03.2020;
15. 8 amazing ways consumers can benefit from the impact of artificial intelligence on the banking sector, financial sectors // Financial Express. December 22, 2017. URL: <https://www.financialexpress.com/>;
16. The Digital Trends You Need to Know to Stay Competitive. URL: <https://www.businessinsider.com/intelligence> (Accessed: 31.12.2018).

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

